



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**

## INSON UMRI – SHOH-U GADOLIK YO‘LI

### (Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida misolida) HUMAN LIFE-THE KING AND THE POOR WAY (On the example of Zahiriddin Muhammad Babur's work)

**Madina Vahobova**

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

E-mail: [vahobovam.1996@gmail.com](mailto:vahobovam.1996@gmail.com)

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./ZRTI8487](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./ZRTI8487)

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida misolida inson umri – shoh-u gadolik yo‘li ekani, shohlik va gadolik maqomlarining falsafiy, axloqiy, g‘oyaviy-badiiy mazmun-mohiyati tahlil qilinadi. Bobur shaxsiyati va lirikasida shohlik bilan gadolik, qudrat va ojizlik, dunyoviy hukmronlik bilan ruhiy darveshlikning dialektik birligi ochib beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Bobur, shoh-u gado, falsafiy konsepsiya, g‘azal, ruboiy, bayt, matla‘, maqta‘, ramz, majoz, obraz, g‘oya, taqdir, iymon, shakl va mazmun.*

**Annotation.** *This article analyzes the philosophical, moral, ideological and artistic content of the status of Kingdom and poverty, using the example of Zahiriddin Muhammad Babur's work as the path of human life – the king-he isnnotation. This article analyzes the philosophical, moral, ideological and artistic content of the status of Kingdom and poverty, using the example of zahirics.*

**Keywords:** *Babur, king and poor, philosophical concept, ghazal, rubaiyat, verse, matla, maqta, symbol, metaphor, image, idea, fate, faith, form and content.*

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbek mumtoz adabiyoti va jahon tarixida ham betakror fenomen sifatida namoyon bo‘lgan shaxsdir. U bir vaqtning o‘zida hukmdor – shoh bo‘lishiga qaramay, benazir shoir ham edi. Bobur she‘riyati ana shu ikki qutb – qudrat va ojizlik, hukmronlik va darveshlik, shohlik va gadolik o‘rtasidagi murakkab ruhiy uyg‘unlik bilan tavsiflanadi. Bobur ijodini tahlil etishda uni faqat g‘olib sarkarda yoki shoir sifatida emas, balki taqdir sinovlaridan o‘tgan irodali inson sifatida ham o‘rganish muhimdir. Chunki uning lirikasida eng ko‘p uchraydigan mavzular – ayriliq, armon, tavakkul, taqdir va iymon – inson umrining falsafiy mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Atoqli davlat arbobi Javoharlal Neru “Bobur – dilbar shaxs edi” [Hepy, 1998: 39] deb yozadi. Bobur she‘riyati bilan tanish o‘quvchi, albatta, bu ta‘rifni tasdiqlaydi. Bobur lirikasida qalb iztiroblari va uning taqdir bilan munosabati tasvirlanadi. Quyidagi bayt lirik qahramon Boburning ruhiy holatini, ma‘naviy olamini tasavvur qilishga katta yo‘l ochadi:

*“Mening ko‘nglimki, gulning g‘unchasidek tah-batah qondur,*



*Agar yuz ming bahor o'lsa, ochilmog'i ne imkondur*” [Bo'by, 2008: 68].

Bu misralarda Bobur qalbi ochilmay qolgan g'uncha kabi tasvirlanadi. Bu shunchaki ishqiy dard emas, balki vatan sog'inchi, ayriliq, armonning umumlashgan ramzidir. G'azal matla'sida ifodalangan ko'ngil tasviri – Bobur siyratini ochishda bizga yordam beradi. Yuz ming bahor kelishi mumkindir, ammo mening ko'nglim shundayin bir g'uncha misoli hech ochilmaydi, deydi shoir. Bu olis yurt Hindistonda saltanat tuzgan bo'lsa-da, abadiy yurt sog'inchi bilan darbadar kezman, bitmas armonlar sohibi Zahiriddin Muhammad Boburning qalb chizgilaridir. U shoh bo'lsa-da, o'zining bandaligini unitmaydi – Mutlaq Shohga muhtojligini his qilib turadi.

Shoh va shoir tasvirlangan suratlar, haykallarga ahamiyat beradigan bo'lsak, u nozik, xushbichim bo'y ko'rsatadi, yosh shahzoda qiyofasida gavdalanadi. Ijodida ham bir vaqtning o'zida ham sodda va shu bilan birga bitmas iztiroblarga to'la, ulkan hayotiy saboqlardan olingan xulosalarga duch kelamiz. Shoir g'azallari, ruboiylaridagi nozik qalb chizgilari rassom yo haykaltaroshga shunday qiyofani vujudga keltirish uchun asos bo'lgan bo'lsa ajab emas. Ammo aslida, Bobur juda kuchli, ham ma'nan ham jismonan juda baquvvat lashkarboshi, insonlar bilan munosabatda zakofatli shaxs bo'lgan.

Asl nomi Zahiriddin Muhammad bo'lib, unga berilgan nom “Bobur” so'zi ham fors-tojik tilidan olingan bo'lib, babr (ببر) – “jasur, qudratli, qo'rqmas, sherdek bahodir yo'lbars” ma'nolarni anglatadi. Bu Boburning ham qat'iyatli, qo'rqmas, jangavor shijoatli shoh sifatida xarakterini ifodalaydi. Qizig'i shundaki, Bobur o'ziga “yo'lbars” ma'nosidagi taxallusni tanlagan bo'lsa-da, uning she'riyatida o'ta nozik, iztirobli, gadolik ruhiyati ustuvorligini ko'rish mumkin. Bu esa Bobur hayoti va ijodi misolida shoh-u gado dualizmini yanada chuqurlashtiradi. Ya'ni, Bobur zohiriy-tashqi tomondan yo'lbars, botiniy-ichki tomondan darvesh singari yashaydi.

Mumtoz sharq adabiyotida taxallus oddiy ism emas, balki shoirning ichki mohiyatini ifodalovchi belgi hisoblanadi. Demak, “Bobur” so'zi faqat jismoniy qudratni emas, balki iroda, taqdir bilan olishish, nafs bilan mujodala qilish ramzi hamdir. Yo'lbars sharqda yolg'iz yuruvchi, mustaqil, o'z hududini himoya qiluvchi va xavf oldida chekinmaydigan mavjudot sifatida qudrat timsoli hisoblanadi. Bobur ham tarixda aynan shunday, nomiga mos yashadi: yolg'iz taqdir bilan olishdi, o'z yurtidan ayrildi, taqdirdan qo'rqmadi va yana yangi yurtlar barpo etdi. Tasavvuf timsoli sifatida yo'lbars – nafs, shahvat, qudratni anglatadi. Bobur shu kuchni ijod va iymon bilan jilovlagan shaxs. U “Bobur” bo'lishi bilan nafsini ham tan oladi, lekin uni Haq yo'lga bo'ysundiradi.

“Boburnoma” asari ham tarixiy-memuar adabiy meros bo'lib, unda tasvirlanishicha, Bobur qal'a darvozasi tashqarisida yelkasida yog'och ustunning bir tomoniga ikki askar, bu tomoniga ikki askarni ko'tarib mashq qiladi [Bo'by, 2008: 67]. Bu esa Boburning aslida suratlarda tasvirlanganidek, nozik shahzoda bo'lib qolmasdan, balki jismonan baquvvat va irodali shaxs bo'lganidan dalolat

beradi. Lashkar ham har tomonlama ibrat bo'la oladigan yetakchiga ergashadi. Bu borada Boburning qat'iyat va ishonch bilan, shu bilan birgalikda, aqlli tadbir ko'rishi tufayli o'zining qo'shinidan o'n barobar ko'p lashkari bo'lishiga qaramay, Ibrohim Lo'diy qo'shinini mag'lub qilganini ham eslash kifoya. “Boburnoma” da keltirilgan uning jismoniy qudratiga oid epizodlar, sarkarda sifatidagi, janglarda ko'rsatgan jasoratlari zohiran shohlik timsolini ifodalaydi. Ammo g'azallaridagi iztirobli ohang Boburning ichki darveshvashligni ochadi. Shu jihatdan Bobur shaxsida shohlik va gadolik bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini to'ldiradi. Shoirning mashhur “Yaxshilig” g'azali ham Bobur ruhiy olamidagi gadolik maqomini aks ettiradi:

*“Kim ko'ribdur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilig',  
Kimki, ondin yaxshi yo'q, ko'z tutma ondin yaxshilig'.  
Gar zamonni nafe' qilsam, ayb qilma, ey rafiq,  
Ko'rmadim hargiz netoyin bu zamonning yaxshilig'”* [Bobur, 2008: 93].

Bunda Bobur dunyoning adolatsizligi, unda xiyonat va jafolar ro'y berishi mumkinligini ifodalaydi. Shoh bo'lishiga qaramay, u hayotdan ko'ngli singan inson sifatida gapiradi. Shoir ko'ngliga taskin ila murojaat qiladi. Bu jahonning ishi azaldan shunday, kim yaxshilik ko'ribdiki, sen ko'rmadim desang! Bu jahon ahlining ishi fitna, xavf-u xatardan iborat. Kimniki eng yaxshi inson deb bilsang ham, hatto undan ham yaxshilik kutma, deya necha bor ishonib aldangan, qattiq zarbalarga uchragan qalbiga nasihat qiladi. Ikkinchi baytga e'tibor bering, shoir aytadi: Agar men ayriliq, sinovlar iskanjasida zamonni yomonlab qo'ysam, ayb qilmagin, ey do'st. Ne qilay, axir men o'z zamonimdan yaxshilik ko'rmadim, deya yozish uchun shohning aqli, shoir qalbi naqadar teran bo'lmog'i kerak. G'azal shundayin xulosa bilan yakunlanadi:

*“Yaxshilig' ahli jahonda istama, Bobur kibi,  
Kim ko'ribdur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilig'”* [Bobur, 2008: 93].

Qalbida ona yurt sog'inchi, umr davomida begona yurtlarni obod etish, xalqlarni zalolatdan, bid'at, xurofotlardan qutqarish, yurtidan ayro bo'lsa-da, yurtlarni obod qilish uchun inson qanchalik darveshlik choponini qabul qilgan bo'lishi kerak. Qomar Rayisning “Bobur shaxsiyati va she'riyati” kitobida Saidbek Hasanov yozadi: “Garchan Bobur lirikasi hajman kichik bo'lsa-da, shaklan yetuk va badiiy jihatdan barkamoldir” [Qomar Rayiz, 2007: 36]. Boburning ushbu mashhur ruboiysida ham yuqoridagi olimning fikrlari isboti o'laroq uning iymoni, dunyoqarashi o'z ifodasini topadi:

*“Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,  
Har ishniki ayladim xatolig' bo'ldi.  
O'z yurtni qo'yib, Hind sori yuzlandim,  
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi”* [Bobur, 2008: 156].

Bobur bularning barini tole'dan ekanini biladi, sotqin, qo'rqqoq kishilarni ham, hech kimni ayblamaydi. Joniga balolar tole'dan, taqdiri azaldan ekanini aytadi. Yana shuning bilan, o'zining nima ishni qilsa ham xato bo'lganini



bildiradiki, bu Haq taqdiri oldida hech bir aqlli tadbir ham ish bermasligiga dalildir. Ikkinchi misradan yana boshimizga, jonimizga nima balo kelsa o‘z ishimizdan, degan mazmun ham anglashiladi. Keyingi misrada Hindiston mamlakati sari yo‘l oldim, haqiqatda yuzim qoraydi, ammo o‘z vatanimga sig‘maganim, chiqib ketishga majbur bo‘lganim iztirobi ham yuzimni kuydirib qora qildi. O‘z vatanidan ketishga majbur bo‘lishi tasviri ham lirik qahramon – Bobur ruhiy fojeasini ko‘rsatadi. U g‘olib bo‘lsa-da, vatandan judo bo‘lgani uchun o‘zini yuzqarolikda ko‘radi. Bu esa shohlikning tashqi, gadolikning ichki mohiyatini ochadi. Nachoraki, o‘z yurtini qo‘yib, Hind sari yuzlandim, deydi shoir. Va Robbiga yuzlanib, qandayin yuzqarolikdaman – vatandan ayrildim, deya najot so‘raydi. Allohga suyanadi, dardini aytadi, qay ahvolda bo‘lmasin Yaratgandan umidini uzmaydi. Shoir zamonaga emas, balki taqdirga bo‘ysunadi – bu esa ruhiy yetuklik belgisi.

Bobur asarlariga avtobiografik yondashuv bilan nazar tashlar ekanmiz, Bobur, ana shunday – Tangri Taoloning inoyati bilan, taqdiri zayli bilan shoh-u gadolik yo‘liga chiqqan tipik obraz sifatida gavidalanadi. Shoh-u gadolikning birligi Bobur ijodi misolida o‘z tasdig‘ini topadi. Bu yo‘lda Bobur shoir bo‘lib shunday yozadi:

*“Tuz, oh Zahiriddin Muhammad Bobur,  
Yuz, oh Zahiriddin Muhammad Bobur,  
Sarishtai ayshdin ko‘ngilni zinhor,  
Uz, oh Zahiriddin Muhammad Bobur”* [Bobur, 2008: 156].

Yaraga tuz tegsa qanday og‘ritadi, achishtiradi. Dil yarasini ham shunga qiyosan tasvirleydi, bundan oh tortadi – Zahiriddin Muhammad Bobur. Bundayin ohlardan, yaralardan, unga tuz sepganda achchiq, ko‘zdan yosh chiqib ketar darajadagi og‘riqlardan bir emas, yuzlab ekanidan shoirning ohlari yuzga bo‘linib ketadi. Endi bunday dardli holingda aysh-ishratdan ko‘ngil xush bo‘lmaydi, undan ko‘ngilni uz, chunki ohing sababi yarangning azobidan dilga aysh sig‘maydi, deydi. Ushbu to‘rtlikdan Bobur qandayin katta shaxsligi haqida o‘yga tolamiz. Bobur o‘zining lirik she‘rlarida har doim insonlarni yaxshilikka, adolatga, insonparvarlikka va yuksak insoniy tuyg‘ularni qadrlashga chaqiradi. Bizga yana bir ruboiy tahlili Boburning shoh-u gadolik qiyofasini tanishimizda ko‘makchi bo‘ladi. Bu ruboiyni tushungan, anglagan o‘quvchi Boburning shohlik ichra gadolik va aksincha, gadolik ichra shohlik kasb etgan maqomga yetganini tasdiqlaydi:

*“Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,  
Har kimki jafu qilsa, jafu topqusidur.  
Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonlik hargiz,  
Har kimki yomon bo‘lsa, jazo topqusidur”* [Bobur, 2008: 130].

Ruboiyni tahlil qilib ko‘ramiz. Aslida ham shundaymi? Har kim vafo qilsa, vafo topadimi? Yo‘q, vafodorga doim jafu qilinadi. Har kim jafu qilsa, yo‘q, ustiga ustak jafu qiladi. Hatto kimnidir halok etishi ham mumkin. Aytadilarku,



yomon havo yaxshi bo'ladi, ammo yomon, jafokash odam yaxshi bo'lib qolmaydi, deb. Xo'sh, keyingi misrada yaxshi kishilar hargiz yomonlik ko'rmaydi, deyiladi. Yaxshilar hech qachon yomonlik, jabr-zulm ko'rmaydimi? Yo'q, doimo, yaxshi insonlar holi aksincha bo'ladi, deb javob beramiz. Har kimki yomon bo'lsa jazo topqusidir. Yomonlar jazo olyaptimi, yo'q, aksincha, yomonlikni kasb qilib olgan kimsalarni jazolanmay, yomon amallarida yanada avj olib ketayotganiga ham guvoh bo'lamiz. Ammo ushbu ruboiy biz o'ylaganchalik haqiqatdan yiroq emas. Aslida bu to'rt misra Bobur shaxsi (fenomeni), umrning asl haqiqatini anglagan, Haq Odil hisob-kitobiga ishongan komil iymon sohibi ekanini oshkor etadi. Axir vafo qilgan kishi bir kuni vafo ko'radi, jafo qilgan kishi jafo ko'radi. “Zarra misqolicha bo'lsa ham yaxshilik yo yomonlik haqlar olib beriladigan kun” keladi. “Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz” – Yaxshilar bir kuni Haq amri, Haq va'dasi ila hech qachon yomonlik, ozor ko'rmaydilar. Yomonga jazo muqarrar bo'lgan kun bor. Albatta, har kim yomon bo'lsa jazo topadigan kun, vaqti-soat keladi. Bu esa iymon. Bu to'rtlikda Boburning gadolik iymonining tasdig'ini ko'rish mumkin. Bunda Bobur shoh emas, balki Haq oldida gado sifatida so'zlaydi. “Vafo va jafo”, “jazo va mukofot” haqidagi qat'iy ishinchlar shuni ko'rsatadiki, Bobur hayotning vaqtinchalik shohlik sahnasi, oxiratni esa haqiqiy adolat maydoni deb bilgan. Shu ma'noda Bobur shoh bo'lsa-da, Haq oldida o'zining gadoligini his etgan komil iymon sohibidir. U biladiki, bu dunyoda adolat to'liq qaror topmasligi mumkindir, ammo ilohiy hisob muqarrardir. Demak, Bobur bu umr sinov ekanini, bir kuni hayot vafoga vafo, jafoga jafo, yomonga jazo berishini-yu, yaxshining yaxshiliklarini bir kun mukofotlashini yaxshi bilgan. Agar bu hayotda bo'lmasa ham, Yaratgan Egamizning hisob kuni kelishini, va albatta, O'zining adli ila yuqoridagi holatlar ro'y berishini, hamma singari gadoligini anglab yetgan shoh bo'lganidan dalolat beradi.

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi orqali ko'plab xulosalar olamiz. Avvalo, Bobur shunchaki bahodir shoh yoki istedodli shoir emas, balki inson umrining eng murakkab falsafiy modelini o'zida jamlagan fenomen, shaxs sifatida ham katta ibratdir. Bobur – shaxsi va she'riyatida shohlik va gadolik, qudrat va muhtojlik, hukmronlik bilan ojizlik parallel ravishda aks etib, uning sinovlarni hayotsevarlik, kurashuvchanlik, iymon, iroda va taqdirga rozilik hislari yordamida yengib o'tganini ko'ramiz. Bobur shoh bo'lsa-da, taqdiri Oliy oldida o'zini bandaligini anlagan, iymon bilan yashagan kamolot sohibi edi. Uning lirikasida tashqi qudratdan ko'ra ichki ma'naviy holat ustun turadi. Shoh-u gadolik Boburda qarama-qarshi emas, balki inson umrining ikki qirrasidir. Shu bois Bobur ijodi bizga inson hayotining mohiyati shohlikda emas, balki iymon, sabr va ruhiy poklikda ekanini anglatadi. Ba'zan inson shohdek qudratli, ba'zan gado kabi ojiz bo'lishi mumkin, ammo uning haqiqiy qiymati tashqi maqomda emas, iymoni va ma'naviy matonatida aks etadi. Bobur ijodi ana shu haqiqatni yuksak badiiy darajada ifodalagan betakror ruhiy-falsafiy meros hisoblanadi.



Demak, Bobur ijodi misolida “inson umrini – shoh-u gadolik yo‘li” deya aytish mumkin bo‘ladi.

**Adabiyotlar:**

1. Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Фан, 2008.
2. Бобур. Девон. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт, 2010.
3. Qomar Rayiz. Бобур Шахсияти ва шеърляти. Андижон, 2007.
4. Неру Ж. Ҳиндистон кашф этилиши (Бобур хақидаги бўлимлар). – Тошкент: Шарқ, 1998.